

## O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XUSUSIY BIRIKUVCHILI BIRIKMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Hamdamov Haydar Azamatovich,**

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, f.f.f.d.,*

*Filologiya kafedrasida dotsent v.b.,*

[hamdamovhaydar@gmail.com](mailto:hamdamovhaydar@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida xususiy birikuvchili birikmalarning struktur–semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda ushbu birliklar struktur jihatdan ochiq, biroq leksik tanlov darajasida cheklangan, semantik jihatdan shaffof, ammo qisman barqaror birliklar sifatida talqin qilinadi. O‘tkazilgan tahlil xususiy birikuvchili birikmalarning gradatsion va prototipik xarakterga egaligini ko‘rsatadi. Natijalar ushbu birliklarni erkin so‘z birikmasi, ibora yoki qo‘shma so‘z doirasida to‘liq izohlash mumkin emasligini asoslaydi hamda ularni til tizimida mustaqil struktur–semantik kategoriya sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** xususiy birikuvchili birikma, struktur-semantik tahlil, kollokatsiya, gradatsionlik, prototipiklik, qiyosiy tilshunoslik.

**Аннотация.** В статье проводится сопоставительный анализ структурно-семантических особенностей сочетаний с ограниченной сочетаемостью в узбекском и английском языках. Такие сочетания интерпретируются как структурно открытые, но лексически ограниченные, семантически прозрачные, однако частично устойчивые единицы. Результаты исследования показывают градационный и прототипический характер данных сочетаний, а также их промежуточное, но самостоятельное положение в языковой системе. Обосновывается невозможность их полного отнесения ни к свободным словосочетаниям, ни к фразеологическим единицам, ни к сложным словам.

**Ключевые слова:** сочетания с ограниченной сочетаемостью, структурно-семантический анализ, коллокация, градационность, прототипичность, сопоставительная лингвистика.

**Abstract.** This article presents a contrastive analysis of the structural-semantic properties of restricted collocational units in Uzbek and English. The study interprets these units as structurally open but lexically constrained, semantically transparent yet partially stable formations. The findings reveal the gradational and prototypical nature of restricted collocational units and demonstrate their independent status within the language system. The analysis shows that such units cannot be fully classified as free word combinations, phraseological units, or compound words, and argues for their treatment as a distinct structural-semantic category shaped by discursive and cognitive factors.

**Keywords:** restricted collocational units, structural-semantic analysis, collocation, gradation, prototypicality, contrastive linguistics.

**Kirish.** So‘zlarning birikuvchanlik xususiyatlari til tizimining ichki mexanizmlarini ochib beruvchi muhim lingvistik hodisalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xususiy birikuvchili birikmalar masalasi so‘z birikmasi, frazeologik birlik va qo‘shma so‘z kabi kategoriyalar bilan kesishib kelgani sababli nazariy va tasnifiy jihatdan murakkablik kasb etadi. Ushbu hodisa nafaqat bitta til doirasida, balki tillararo qiyosiy tahlil kontekstida ham dolzarb bo‘lib, ularning struktur va semantik xususiyatlarini aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Xususiy birikuvchanlik tushunchasining nazariy asoslari ingliz tilshunosligida kontekst va qo‘shnichilik munosabatlariga tayangan yondashuvlar bilan bog‘liq. Firs leksik birliklar ma’nosining ularning tipik qo‘llanish muhiti orqali shakllanishini ta’kidlab, so‘zlar o‘rtasidagi barqaror kombinatsiyalar tasodifiy emasligini ko‘rsatadi [7: 168-170].

Ushbu qarash ingliz tilida “restricted collocations” sifatida talqin qilinadigan birliklarni til tizimidagi kombinator cheklovlarning mahsuli sifatida izohlashga asos yaratadi.

Bunday yondashuv keyinchalik Sinclair ishlari bilan rivojlantirilib, u tilni “ochiq tanlov prinsipi” va “idiomatik prinsip” qarama-qarshiligi asosida tushuntiradi. Sinclairga ko‘ra, real nutqda so‘zlarning birikishi ko‘pincha erkin tanlov natijasi emas, balki oldindan shakllangan, tizim tomonidan ma‘qullangan kombinatsiyalar bilan cheklanadi [9: 109-115]. Bu holat ingliz tilidagi xususiy birikuvchili birikmalarning struktur jihatdan ochiq, semantik jihatdan esa cheklangan xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida esa xususiy birikuvchanlik masalasi ko‘proq so‘z birikmasi va frazeologiya doirasida ko‘rib chiqilgan. An‘anaviy yondashuvlarda so‘z birikmalari grammatik ochiqligi, iboralar esa semantik yaxlitligi bilan tavsiflanadi. Biroq xususiy birikuvchili birikmalar ushbu ikki kategoriya xususiyatlarini qisman mujassamlashtirib, ularni qat‘iy tasnif doirasida izohlashni qiyinlashtiradi. G‘ulomov tomonidan ta‘kidlangan grammatik ochiqlik mezoni [1. 112-115] va Mahmudov qayd etgan semantik normallashtiruv jarayonlari [2: 64-70] ushbu birliklarning murakkab struktur–semantik tabiatini izohlashga xizmat qiladi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi xususiy birikuvchili birikmalarni qiyosiy o‘rganish ushbu hodisaning tipologik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Har ikkala tilda ham bunday birikmalar struktur jihatdan ochiq bo‘lsa-da, leksik tanlov darajasida cheklanganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, tillararo qiyosiy tahlil ularning semantik motivatsiyasi, barqarorlik darajasi va nutqiy voqelanish mexanizmlarida muayyan farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Maqolada o‘zbek va ingliz tillarida xususiy birikuvchili birikmalarning struktur-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu birliklarning har ikki tildagi umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, ularni ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlardan farqlovchi mezonlarni belgilash hamda xususiy birikuvchanlikning tillararo namoyon bo‘lish xususiyatlarini yoritishdan iborat. Ushbu yondashuv xususiy birikuvchili birikmalarni ikki til tizimida oraliq, biroq mustaqil struktur-semantik birliklar sifatida talqin qilish imkonini beradi.

**Adabiyotlar sharhi.** O‘zbek va ingliz tilshunosligida birikuvchanlik masalasi turli nom va yondashuvlar ostida o‘rganilgan bo‘lsa-da, “xususiy birikuvchili birikmalar”ning struktur–semantik tabiatini aynan tillararo qiyos nuqtai nazardan izohlash hanuzgacha izchil modelga keltirilmagan. Shu bois adabiyotlar sharhida ikki yo‘nalish - ingliz tilshunosligidagi kollokatsion nazariya va o‘zbek tilshunosligidagi birikuvchanlik hamda frazeologiya an‘analari bir-biriga tutashtirilib tahlil qilinadi.

**1) Ingliz tilshunosligida kollokatsiya va “cheklangan” birikuvchanlik talqini.** Ingliz tilshunosligida kollokatsiya tushunchasi, avvalo, kontekstual va qo‘shnichilik paradigmasida asoslangan. Firs so‘z ma‘nosi uning tipik qo‘llanish muhitisiz to‘liq ochilmasligini ta‘kidlaydi; ya‘ni birlik “o‘z sheriklari” orqali taniladi va shu sheriklik til

tizimida tasodifiy emas [7: 168-170]. Bu yondashuv “restricted collocations”ni mustaqil “tayyor ibora”dan ko‘ra, tizimli tanlov cheklovi sifatida ko‘rishga yo‘l ochadi: grammatik shakl ochiq bo‘lishi mumkin, lekin leksik tanlov “hamma narsaga ruxsat bermaydi”.

Kollokatsiyaning matn ichidagi roli masalasi Halliday va Hasan konsepsiyasida yanada aniqlashadi. Ular kollokatsiyani grammatik bog‘lanish emas, balki matn izchilligini ushlab turuvchi semantik kohesiya omili sifatida talqin qiladilar [8: 284-286]. Bunda e‘tibor struktur qat‘iylikka emas, semantik uyg‘unlikning funksional natijasiga qaratiladi: kollokatsion yaqinlik matnda “tabiiy” ko‘rinadi, shu “tabiiylik” esa tizimiy normallashtirishni bildiradi.

Korpusga asoslangan yondashuv esa Sinclair ishlari bilan markaziy o‘ringa chiqadi. Sinclair tilni “ochiq tanlov prinsipi” va “idiomatik prinsip” qarama-qarshiligi orqali izohlaydi; real nutqda esa ko‘pincha ikkinchi prinsip ustun kelib, so‘zlar oldindan shakllangan kombinatsiyalar doirasida “o‘zini tutishini” ko‘rsatadi [9: 109-115]. Bu qarash xususiy birikuvchanlikni oddiy “birga kelish” emas, balki tizim tomonidan qo‘llab-quvvatlangan tipik kombinatsiya sifatida ko‘rish uchun metodologik tayanch beradi.

Kollokatsiyalarning kategoriya sifatidagi “o‘rni” masalasida MakKevn va Radev gradatsion pozitsiyani taklif qiladilar: kollokatsiyalar erkin birikma va idiomalar o‘rtasidagi uzluksiz spektrda joylashadi, cheklovlar esa darajaviy xarakterga ega [10: 3-6]. Demak, kollokatsiyani qat‘iy tasnifga “tiqishtirish”dan ko‘ra, uning cheklov kuchini o‘lchash maqsadga muvofiq. Frazeologiya nuqtai nazaridan Kovi kollokatsiyalarni iboralardan ajratishda asosiy mezon sifatida semantik motivatsiyani ko‘rsatadi: kollokatsiyada ma‘no ko‘pincha tarkibiy qismlar orqali anglashiladi, ammo kombinatsiya til me‘yorida tanlab qo‘yilgan bo‘ladi [11: 215-218]. Shu jihat “xususiy birikuvchanlik”ni semantik shaffoflik bilan bog‘lasa-da, u erkinlikni anglatmasligini aniq ko‘rsatadi.

Zamonaviy tendensiyada esa kollokatsiya masalasi diskurs va kognitiv mustahkamlanish bilan tutashtiriladi. Poulsen kollokatsiyalar diskursda foydalanish orqali prototipiklashishini, ya‘ni birliklarning qo‘llanish jarayonida “mustahkam o‘rin” egallashini ta‘kidlaydi [12: 37-41]. Brezina va Meyerhoff esa kollokatsion naqshlarni faqat chastota bilan emas, balki funksional va kontekstual moslashuvchanlik nuqtai nazaridan baholash zarurligini ko‘rsatadilar [13: 350-355]. Bu fikrlar “restricted collocations”ni tirik, dinamik tizimiy resurs sifatida talqin qilishga xizmat qiladi.

**2) O‘zbek tilshunosligida birikuvchanlik, so‘z birikmasi va frazeologiya kesishmasi.** O‘zbek tilshunosligida birikuvchanlik masalasi, avvalo, sintaktik va grammatik talqinlar orqali yoritilgan. G‘ulomov so‘z birikmasini grammatik bog‘lanish doirasida tahlil qilib, modelning ochiqligi va komponentlar aloqasining me‘yoriy xarakterini ko‘rsatadi [1: 112-115]. Biroq aynan shu nuqtada “xususiy birikuvchanlik” muammosi yuzaga chiqadi: grammatik model saqlangan holda leksik tanlovning keskin cheklanishi oddiy so‘z birikmasidan farqli manzarani beradi.

Semantik yondashuvda Mahmudov til birliklarining ma'no tabiatini tahlil qilarkan, birliklararo bog'lanishlar ko'pincha semantik moslik va normallashtirish bilan belgilanishini ta'kidlaydi [2: 64-70]. Bu qarash xususiy birikuvchanlikni "tasodifiy moslik"dan ajratib, uni semantik moslikning tizimiy shakli sifatida ko'rishga yordam beradi. Frazologik qatlam doirasida Rahmatullayev iboralarning asosiy belgisi sifatida semantik yaxlitlik va komponentlar almashinuvining cheklanganligini ko'rsatadi [3: 97-99]. Shu mezon asosida xususiy birikuvchili birikmalar iboralardan farqlanadi: ular ko'pincha semantik jihatdan shaffof, lekin barqaror kombinatsiya sifatida qayta ishlab chiqarilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy-nazariy umumlashtirish nuqtai nazaridan Nurmonov tilshunoslik kategoriyalari o'rtasidagi chegaralar har doim ham qat'iy emasligini, ayrim birliklar "o'tish zonalarida"da joylashishini qayd etadi [4: 190-191]. Bu fikr xususiy birikuvchili birikmalarni "ibora yoki so'z birikmasi"ga majburan kiritmasdan, ularni oraliq kategoriya sifatida izohlashga metodologik zamin yaratadi.

So'nggi yondashuvlarda esa xususiy birikuvchanlik alohida obyekt sifatida markazga chiqadi. Ibragimov xususiy birikuvchili birliklarni tizimiy hodisa sifatida ko'rib, cheklovlarning ko'pincha grammatik emas, aynan leksik xususiyatlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi [5: 18-22; 41-46]. Madaminov esa bunday birikmalarning nutqiy voqelanishi va barqaror qo'llanishiga urg'u berib, ularning "tayyorlik" xususiyati borligini, biroq bu tayyorlik iboralardagi kabi yopiq tizimni anglatmasligini qayd etadi [6: 4-8]. Bu qarashlar xususiy birikuvchili birikmalarni til tizimida barqaror, lekin dinamik birlik sifatida talqin qilishga olib keladi.

**3) Qiyosiy yondashuv uchun ilmiy bo'shliq.** Ko'rinadiki, ingliz tilshunosligida "restricted collocations"ni tushuntiruvchi kollokatsion, korpusga tayangan va gradatsion yondashuvlar mavjud; o'zbek tilshunosligida esa xususiy birikuvchanlik sintaksis, semantika va frazeologiya kesishmasida turlicha izohlanadi. Biroq ikki til materialini bir xil differensial mezonlar asosida tekislab, "xususiy birikuvchanlik"ning struktur-semantik mexanizmlarini qiyosan ko'rsatadigan integrativ model yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur maqola o'zbek va ingliz tillarida xususiy birikuvchili birikmalarni:

1. struktur ochiqlik ↔ leksik cheklov,
2. semantik shaffoflik ↔ barqarorlik,
3. gradatsionlik ↔ prototipiklik,
4. diskursiv mustahkamlanish

mezonlari bo'yicha qiyosiy tahlil qilishga yo'naltiriladi. Bu yondashuv xususiy birikuvchili birikmalarni ikki til tizimida ham "oraliq" hodisa sifatida ko'rsatish bilan cheklanmay, ularning struktur-semantik maqomini izchil asoslash imkonini beradi.

**Natijalar.** O'tkazilgan qiyosiy struktur-semantik tahlil o'zbek va ingliz tillarida xususiy birikuvchili birikmalarning umumiy tipologik belgilariga qaramay, ularning namoyon bo'lish mexanizmlarida muayyan farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Jadvalda

keltirilgan original misollar asosida xususiy birikuvchanlikning struktur ochiqlik va leksik cheklanganlik o'rtasidagi muvozanat orqali shakllanishi aniqlanadi.

Birinchi, har ikki tilda xususiy birikuvchili birikmalar struktur jihatdan ochiq modellar asosida quriladi. O'zbek tilida *mas'uliyatni bo'yniga olmoq*, *yo'nalishni belgilamoq* kabi birliklar grammatik model jihatidan kengayishga moyil bo'lsa-da, leksik komponentlarning almashinuv imkoniyati keskin cheklangan. Xuddi shunday holat ingliz tilida *to shoulder responsibility*, *to set a direction* kabi birliklarda kuzatiladi. Bu holat xususiy birikuvchanlikni oddiy so'z birikmalaridan ajratib turuvchi asosiy belgi sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi, natijalar xususiy birikuvchili birikmalarining semantik jihatdan shaffof, biroq qisman barqaror ekanini ko'rsatdi. O'zbek tilidagi *fikrni pishitmoq*, *vaqtni yemoq* kabi birikmalarda umumiy ma'no tarkibiy qismlar orqali anglashiladi, biroq bu shaffoflik erkin kombinatorlikni anglatmaydi. Ingliz tilida *to refine an idea*, *time consumes resources* kabi birliklar ham aynan shu xususiyat bilan tavsiflanadi. Natijada, semantik shaffoflik xususiy birikuvchanlikning muhim belgisi bo'lsa-da, u struktur erkinlik bilan tenglashtirilmaydi.

Uchinchi, tahlil xususiy birikuvchili birikmalarining gradatsion xarakterga ega ekanini tasdiqladi. Ayrim birliklar erkin so'z birikmalariga yaqinlashsa (*jarayonni tezlashtirmoq / to accelerate a process*), boshqalari esa iboralarga yaqinlashadi (*jarayonni olovlantirmoq / to ignite a process*). Biroq har ikkala holatda ham birliklar prototipik markaz atrofida joylashib, o'zining struktur-semantik maqomini saqlab qoladi.

To'rtinchi, qo'shma so'zlar bilan qiyoslash xususiy birikuvchili birikmalarining to'liq leksiklashmagan ekanini ko'rsatdi. O'zbek tilidagi *axborotni muzlatmoq* yoki ingliz tilidagi *to freeze information* kabi birliklarda komponentlar mustaqil grammatik va semantik xususiyatini saqlaydi. Bu holat ularni qo'shma so'zlardan aniq ajratib turadi va xususiy birikuvchanlikning leksik emas, balki struktur-semantik hodisa ekanini ko'rsatadi. Natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, o'zbek va ingliz tillarida xususiy birikuvchili birikmalar:

1. struktur jihatdan ochiq;
2. leksik tanlov jihatidan cheklangan;
3. semantik jihatdan shaffof, ammo barqaror;
4. gradatsion va prototipik xarakterga ega birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

*1-jadval. O'zbek va ingliz tillarida xususiy birikuvchili birikmalarining differensial mezonlari*

| Mezoni                        | O'zbek tili (original misollar)  | Ingliz tili (original misollar)  |
|-------------------------------|--|--|
| <b>Struktur ochiqlik</b>      | <i>mas'uliyatni bo'yniga olmoq</i><br>(ko'tar-, yukla- emas)           | <i>to shoulder responsibility</i><br>( <i>carry/take responsibility</i> dan farqli)  |
| <b>Leksik tanlov cheklovi</b> | <i>e'tiborni sovurmoq</i><br>( <i>tarqatmoq, bo'lmoq</i> mos kelmaydi) | <i>to dilute attention</i><br>( <i>spread attention</i> mumkin, lekin bu ma'no yo'q) |
| <b>Semantik shaffoflik</b>    | <i>vaqtni yemoq</i><br>(metaforik, lekin tarkibiy ma'no saqlanadi)     | <i>time consumes resources</i><br>(idioma emas, lekin erkin ham emas)                |

|                                  |  |  |
|----------------------------------|--|--|
| <b>Qisman barqarorlik</b>        | <i>fikrni pishitmoq</i><br>(yetiltirmoq qisman, o‘stirmoq yo‘q)              | <i>to refine an idea</i><br>( <i>cook an idea</i> metaforik, lekin cheklangan) |
| <b>Gradatsion maqom</b>          | <i>jarayonni tezlashtirmoq ↔ jarayonni olovlantirmoq</i>                     | <i>to accelerate a process ↔ to ignite a process</i>                           |
| <b>Prototipiklik</b>             | <i>qarorni qabul qilmoq</i> markaz,<br><i>qarorni pishitmoq</i> periferiyada | <i>make a decision</i> markaz,<br><i>shape a decision</i> periferiyada         |
| <b>Diskursiv mustahkamlanish</b> | <i>muammoni yumshatmoq</i><br>(rasmiy nutqda barqarorlashgan)                | <i>to soften a problem</i><br>(policy / academic discourse)                    |
| <b>Ibora emasligi</b>            | <i>holatni keskinlashtirmoq</i><br>(ma‘no ajraladi)                          | <i>to sharpen the situation</i>  |
| <b>So‘z birikmasidan farqi</b>   | <i>yo‘nalishni belgilamoq</i><br>(chiz-, tort- erkin emas)                   | <i>to set a direction</i>  |
| <b>Qo‘shma so‘z emasligi</b>     | <i>axborotni muzlatmoq</i><br>(leksiklashmagan)                              | <i>to freeze information</i>   |

Jadvalda keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillarida xususiy birikuvchili birikmalar grammatik model jihatdan ochiq bo‘lsa-da, leksik tanlov darajasida qat’iy cheklovlarga ega. Har ikki tilda ham semantik shaffoflik saqlangan, biroq kombinatsiya erkinligi chegaralangan bo‘lib, bu holat ularni erkin so‘z birikmalaridan ajratadi hamda iboralarga yaqinlashtiradi.

**Muhokama.** Olingan natijalar ingliz tilshunosligida kollokatsiya nazariyasi doirasida ilgari surilgan asosiy qarashlar bilan muayyan darajada mos keladi, biroq ularni o‘zbek tili materiali bilan qiyoslash ushbu yondashuvlarni kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi. Firth tomonidan ta’kidlangan kontekst va qo‘shnichilikka asoslangan yondashuv xususiy birikuvchanlikning tasodifiy emasligini izohlasa-da, jadvalda keltirilgan misollar cheklovlar faqat kontekst bilan emas, balki tizimiy leksik tanlov bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi [7: 168-170].

Sinkler tomonidan ishlab chiqilgan “idiomatik prinsip” xususiy birikuvchili birikmalarni erkin tanlovdan farqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillarida xususiy birikuvchanlik aynan ushbu prinsip doirasida shakllanadi: birliklar idioma kabi yopiq emas, biroq ochiq tanlov prinsipi bilan ham to‘liq mos kelmaydi [9: 109-115]. Shu jihatdan, xususiy birikuvchili birikmalar idiomatiklik va erkinlik o‘rtasidagi muvozanat nuqtasida joylashadi.

O‘zbek tilshunosligidagi an’anaviy yondashuvlar bilan qiyoslash esa muhim farqlarni ochib beradi. G‘ulomov tomonidan ilgari surilgan grammatik ochiqlik mezoni so‘z birikmalariga nisbatan to‘g‘ri bo‘lsa-da, xususiy birikuvchili birikmalarni to‘liq izohlash uchun yetarli emas. Mahmudov ta’kidlagan semantik normallashtirish jarayonlari esa ushbu birliklarning nega aynan ma’lum leksik komponentlar bilan barqarorlashishini tushuntirishga imkon beradi.

Ibragimov va Madaminov tadqiqotlarida qayd etilgan xususiy birikuvchanlikning leksik xususiyatlarga bog‘liqligi va nutqda tayyor holatda qayta ishlab chiqarilishi haqidagi fikrlar mazkur tadqiqot natijalari bilan to‘liq mos keladi. Biroq qiyosiy tahlil

shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida xususiy birikuvchanlik ko'proq metaforik ko'chishlar orqali shakllansa, o'zbek tilida semantik motivatsiya va normallashuv ustunroq rol o'ynaydi. Bu farq tillarning tipologik va diskursiv xususiyatlari bilan izohlanadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari xususiy birikuvchili birikmalarni nafaqat alohida til doirasida, balki tillararo qiyosiy kontekstda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. O'zbek va ingliz tillarida ushbu birliklar umumiy struktur-semantik modelga ega bo'lsa-da, ularning realizatsiyasi turli diskursiv va kognitiv omillar bilan shakllanadi. Shu bois xususiy birikuvchili birikmalarni oraliq emas, balki ikki til tizimida ham mustaqil struktur-semantik kategoriya sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosliroqdir.

**Xulosa.** O'zbek va ingliz tillarida xususiy birikuvchili birikmalarning struktur-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki ushbu birliklarning har ikki tilda ham na erkin so'z birikmasi, na ibora, na qo'shma so'z doirasida to'liq izohlanmasligini, balki til tizimida alohida, mustaqil maqomga ega hodisa sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Xususiy birikuvchili birikmalarning struktur jihatdan ochiq, biroq leksik tanlov darajasida qat'iy cheklanganligi aniqlandi. Bu xususiyat ularni erkin so'z birikmalaridan ajratadi, shu bilan birga, ularning iboralar kabi yopiq tizimni tashkil etmasligini ham ko'rsatadi. Har ikki tilda ham ushbu birliklar semantik jihatdan shaffof bo'lib, umumiy ma'no tarkibiy qismlar orqali anglashiladi, biroq kombinatsiya imkoniyatlari til tizimi tomonidan normallashtirilgan variantlar bilan chegaralanadi. Shuningdek xususiy birikuvchili birikmalarning gradatsion va prototipik xarakterga ega ekanini tasdiqladi. O'zbek va ingliz tillarida ayrim birikmalar erkin kombinatsiyalarga yaqinlashsa, boshqalari iboralarga yaqinlashadi, biroq bu yaqinlik ularning boshqa kategoriyalarga singib ketishini anglatmaydi. Aksincha, bu holat xususiy birikuvchanlikning prototipik markazga ega ekanini va variativ realizatsiyalar aynan shu markaz atrofida shakllanishini ko'rsatadi. Umuman olganda, xususiy birikuvchili birikmalarni o'zbek va ingliz tillarida struktur-semantik, diskursiv va kognitiv omillar ta'sirida shakllanadigan, mustaqil lingvistik birliklar sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent: Fan, 1966. - 112-115-betlar.
2. Mahmudov N. Til birliklarining semantik tabiati. - Toshkent: Fan, 2013. - 64-70-betlar.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida frazeologik birliklar. - Toshkent: Fan, 2002. - 97-99-betlar.
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2002. - 190-191-betlar.
5. Ibragimov J. Y. O'zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari: filol. fan. dokt. (DSc) diss. - Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2023. - 18-22; 41-46-betlar.
6. Madaminov A. Xususiy birikuvchi so'z birikmalari va ularning nutqiy voqelanishi // Til va adabiyot. - 2025. - № 12. - 4-8-betlar.
7. Firth J. R. A synopsis of linguistic theory 1930-1955 // Palmer F. R. (ed.). Selected Papers of J. R. Firth. - London: Longman, 1968. - pp. 168-205.
8. Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. - London: Longman, 1976. - pp. 284-286.
9. Sinclair J. Corpus, concordance, collocation. - Oxford: Oxford University Press, 1991. - pp. 109-115.
10. McKeown K., Radev D. Collocations // Mitkov R. (ed.). The Oxford Handbook of Computational Linguistics. - Oxford: Oxford University Press, 1998. - pp. 3-6.

11. Cowie A. P. Phraseology: Theory, analysis and applications. - Oxford: Oxford University Press, 1998. -pp. 215-218.
12. Poulsen S. Collocations as discourse phenomena. - Bern: Peter Lang, 2005. – pp. 37-41.
13. Brezina V., Meyerhoff M. Corpus-based approaches to lexical patterning and variability // International Journal of Corpus Linguistics. - 2024. - Vol. 29, № 3. – pp. 350-355.

